

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINIRING MINTAQAVIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAVDO-IQTISODIY HAMKORLIKNING ROLI

*Kayumova Otikaxon Odiljon qizi
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
huzuridagi Diplomatik Akademiya Magistranti*

Annotatsiya: Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning asl sababi – oldindan suvdan va transport kommunikatsiyalaridan foydalanishdagi murosa yo‘qligi bo‘lib kelgan. Mustaqillikdan keyingi yillarda mahalliy transchegaraviy hamkorlikning rivojlanmaganligi mintaqada chegaraviy muammolarning dolzarb tarzda saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Xususan, Yevropa Ittifoqida Shengen shartnomasi qabul qilinishi mintaqadagi davlatlarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir-biriga bog‘lab, chegaraviy muammolarning ijobjiy tomonga harakatlanishida muhim faktor vazifasini o‘tagan.

Kalit so’zlar: Markaziy Osiyo, kxsh, Millatlar Ittifoqi, pragmatik diplomatiya, transchegaraviy, Xalqlar do’stligi kuni, Fransiya, BMT, noekologik tafakkur;

Abstract: The main reason for the differences between the countries of Central Asia is the lack of compromise in the use of water and transport communications. In the years after independence, the lack of development of local cross-border cooperation is one of the main factors that caused border problems to persist in the region. In particular, the adoption of the Schengen Agreement in the European Union connected the countries of the region economically and politically and served as an important factor in the positive movement of border problems.

Key words: Central Asia, CSTO, Union of Nations, pragmatic diplomacy, cross-border, People's Friendship Day, France, UN, non-ecological thinking;

Аннотация: Основной причиной различий между странами Центральной Азии является отсутствие компромиссов в использовании водных и транспортных коммуникаций. В годы после обретения независимости отсутствие развития местного приграничного сотрудничества является одним из основных факторов, которые привели к сохранению пограничных проблем в регионе. В частности, принятие Шенгенского соглашения в Евросоюзе связало страны региона экономически и политически и послужило важным фактором позитивного движения приграничных проблем.

Ключевые слова: Центральная Азия, ОДКБ, Союз Наций, pragmaticheskaya diplomatiya, tansgraničnoe prostranstvo, Den' dружбы народов, Франция, ООН, неэкологическое мышление;

Ko‘pchilik ekspertlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining dezintegratsiya jarayonini 2ta: iqtisodiy va harbiy-siyosiy omillar bilan o‘lchashadi. Iqtisodiy dezintegratsiya Markaziy Osyoning barcha mamlakatlari uchun o‘tmishda uzoq o‘lkalardagi bozorlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgani bilan ifodalanadi. Neft va tabiiy gazning yirik eksportchilari – Qozog‘iston bilan Turkmaniston uchun Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Rossiya bozorlari ustuvor bo‘lgan. Markaziy Osiyo bozorlari yonilg‘i resurslarini iste’mol qilish bo‘yicha Yevroosiyoning yetakchi iqtisodiyotlari bilan raqobat qila olmasdi. Rossiya, Xitoy va Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonning yirik savdo-sotiq va investitsiya sheriklari bo‘lib keldi. Tabiiyki, tashqi savdodagi bunday nomutanosiblik Markaziy Osiyo mamlakatlari ko‘p tomonlama xalqaro aloqalariga nisbatan turli strategiyalar qo‘llashiga sabab bo‘ldi.

Harbiy-siyosiy nuqtayi nazardan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston a’zosi bo‘lgan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotini (KXShT) Markaziy Osiyo dezintegratsiyasining ramzi deb atash mumkin. Garchi Markaziy Osiyo mamlakatlari MDH va ShHT (faqat Turkmaniston a’zo emas) singari platformalarda hamkorlik qilayotgan bo‘lsa-da, yaqin vaqtgacha hamkorlikning sof mintaqaviy formati mavjud emasdi. So‘nggi marta Markaziy Osiyo formati – Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti (MOHT) 2002 yilda tashkil etilgan va u 2005 yilda Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH) bilan birlashib ketguncha mavjud bo‘lgan edi. O‘zi Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi ustida o‘tgan asrning 90-yillardan beri bosh qotirib kelinadi va so‘nggi uchrashuvlar 2018 yil 15 mart kuni Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida va 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvlari ko‘rinishida tashkil etildi. Maslahat uchrashuvlari mintaqqa ichidagi aloqalarni tiklash va mustahkamlashga jiddiy hissa qo‘shayotgan bo‘lsa-da, tashqi bozorlar hali-hamon Markaziy Osyoning har bir mamlakati uchun jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa tojik-qirg‘iz chegarasida sodir bo‘lgan vaziyatga o‘xshash holatlar takrorlanishiga olib kelishi mumkin.

Mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligi

Hozirgi paytda butun jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan yer yuzida tinchlik-barqarorlikni saqlash tobora muhim ahamiyat kasb etib, uni amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar deb butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan maqsadlarga erishish yo‘lida davlatlar, milliy jamiyat uyushmalarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy-texnik asoslarda birlashuvidan tashkil topgan tashkilotlarga aytildi. Xalqaro tashkilotlarning umumiy xususiyati shundan iboratki, ularning faoliyati aniq bir milliy davlat chegarasidan chetga chiqib, davlatlararo vazifalar va muammolarni hal etishga

qaratilgan bo'ladi. Bunday tuzilmalar bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama munosabatlarning eng muhim va samarali shakllaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda har xil mazmun va maqsadga bo'ysundirilgan 2,5 mingdan ortiq xalqaro tashkilot mavjud. Jahonda 350 dan ortiq hukumatlararo tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni hududiy jihatdan (universal, mintaqaviy), qatnashchilar soniga ko'ra (ikki tomonlama, ko'p tomonlama), vakolat doirasi–kompetensiyasiga ko'ra (masalan, Jalon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jalon sayyoqlik tashkiloti), faoliyat sohasiga ko'ra (masalan, siyosiy, iqtisodiy, madaniy) va a'zolik xususiyatiga ko'ra (ochiq va yopiq tashkilotlar)ga bo'lib tasniflash mumkin. Xalqaro huquq qoidalariga ko'ra, hukumatlararo tashkilotlar hamda bu sohada faoliyat ko'rsatadigan mansabdor shaxslar, diplomatlar singari, alohida imtiyoz va immunitetga egadir. Hukumatlararo tashkilotlarning xalqaro huquqdagi o'ziga xos o'rni shundan iboratki, jumladan, ular Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda dunyoning turli mintaqalaridagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositalari bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi davrda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar, garchi birmuncha barqarorlashgan bo'lsa-da, biroq bu jabhadagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar hamon saqlanib qolmoqda. Bu o'z navbatida barcha davlatlar va xalqlarni tashvishga solmoqda. SHu boisdan ham jahonda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda. Ular xalqaro munosabatlarni sog'lomlashtirishning turli yo'llarini ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Jumladan, keyingi yillarda "keng qamrovli xavfsizlik", "kuchlar nisbatidan manfaatlar nisbatiga o'tish", "jahondagi mojarolar va kooperativ munosabatlarni muvofiqlashtirishda diplomatik mohiyat" kabi konsepsiylar ishlab chiqilmoqda va ularda xalqaro siyosiy munosabatlarni barqarorlashtirishga doir xilma–xil fikrlar ilgari surilmoqda.

Demak, jahonda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda xalqaro tashkilotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular turli davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Xalqaro siyosiy muammolarni hal qilishda ikki xil, ya'ni bir-biridan farq qiladigan an'anaviy va yangicha – zamonaviy yondashuv mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega.

1. Xalqaro muammolarni hal qilishda an'anaviy yondashuvning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- sinfiy, guruhiy, milliy manfaatlarning ustuvorligi;
- noekologik tafakkur;
- siyosiy muammolarni kuch orqali hal qilishga urinish;
- ishonmaslik – muloqotning bosh shakli ekani;
- mamlakat xavfsizligini har qanday vositalar bilan ta'minlashga harakat qilish.

2. Xalqaro muammolarni hal qilishga yangicha – zamonaviy yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ umuminsoniy manfaatlarning ustuvorligi;
- ✓ ekologik tafakkur;
- ✓ siyosiy muammolarni tomonlar manfaatini hisobga olgan holda, faqat siyosiy vositalar orqali hal qilish;
- ✓ ishonch – muloqotning asosiy shakli ekani;
- ✓ umumiyl xavfsizlik muhitini yaratish.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi davrda tashqi siyosatning yangi – zamonaviy konsepsiysi yangicha fikrlarga asoslanmoqda. Bugungi dunyo qanchalik xilma-xil bo'lmasin, uning yaxlitligini, bir butunligini tan olish tashqi siyosatda muayyan yutuqlarga erishishning asosini tashkil qiladi. Tashqi siyosatni takomillashtirish emas, qat'iy isloh qilish davr talabi ekanini anglash natijasida xalqaro munosabatlarda quyidagi bir qator ijobiliy tendensiyalar ko'zga tashlanmoqda:

- mafkuraviy ta'sirning yo'qolib borishi;
- konfrontatsiya – o'zaro qarama-qarshilikdan hamkorlikka o'tib borish;
- xalqaro siyosatda kuch va ta'sirni birlashtirish;
- xalqaro siyosatning demokratiyalashuvi va insonparvarlashuvi;
- xalqaro munosabatning kengayishi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti – dunyodagi umuminsoniy manfaatlar asosida faoliyat olib boradigan eng nufuzli xalqaro tashkilot (1945 yil 24 oktyabr). BMTga hozirgi vaqtida 192 ta mamlakat a'zo. BMT – yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlar va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945 yilda, Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilotdir. Aslida bunday xalqaro tashkilotni tuzish zarurati Birinchi jahon urushidan keyinroq ayon bo'la boshlaydi. SHu maqsadda dastlab 1919 yilda "Millatlar Ittifoqi" nomli xalqaro tashkilot ta'sis etiladi va u 1946 yilgacha SHvetsariyaning Jeneva shahrida faoliyat olib boradi. Ammo u davrda demokratik va tinchliksevar kuchlarning uyushqoq emasligi va zaifligi tufayli Millatlar Ittifoqi xalqlarning umidlarini oqlamaydi, u Birinchi jahon urushida g'alaba qozonib, yetakchi mustamlakachi davlatlarga aylangan Buyuk Britaniya va Fransiyaning quroliga aylanib qoladi. Ikkinci jahon urushi davomida va undan keyingi vaqtida 1919-1939 yillar mobaynidagi ana shu achchiq tajriba inobatga olinadi, tegishli xulosalar chiqariladi. Xullas, o'tmish sabog'i yangi xalqaro tashkilotlarning butunlay boshqacha bo'lishini talab qildi.

Oxirgi bir necha yil barcha sohalarda amalda oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tub islohotlar va bu borada erishilgan ulkan yutuqlar miqyos jihatidan mustaqil O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'ldi va xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarda yangi davrni boshlab berdi. Ayni paytda,

muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan muhim tashqi siyosiy tashabbuslar natijasi o'laroq, xalqaro maydonda keng miqyosdagi yuksak natijalarga erishilmoqda.

Ma'lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlar ularda ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim jabhalarini qamrab oladi. O'tgan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining belgilovchi asosiy yo'nalishlaridan biri — hamkorlikni mustahkamlash maqsadida BMT bilan sherikligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimiz 2020 yil 29 dekabr` kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida “Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi”.. Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida **“Inson huquqlari bo'yicha ta'lim”** global forumi, yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo'yicha mintaqaviy konferentsiyalarni o'tkazamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30 iyul` – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. SHu bois ushbu sanani O'zbekistonda **“Xalqlar do'stligi kuni”** deb belgilashni taklif etaman... Qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat'iy davom ettiramiz. Dengizning qurigan tubida yuz minglab hektar o'rmon va butazorlar tashkil etilayotgani, Orolbo'yi hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan qurilish va obodonchilik ishlari xalqimizni yuksak marralar sari ruhlantirmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tuzilgan Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz...”, deb alohida ko'rsatib o'tganligi O'zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendentsiyalarni namoyon qildi.

BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, davlatlar xalqaro hayoti va hamkorligining barcha yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatadigan betakror, tarixan muhim va universal tashkilotdir. Ma'lumki, bundan 29 yil oldin, 1992 yil 2 mart kuni yangi suveren davlat —O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Shundan buyon biz o'z masalalarimizni hal etishda har doim BMTning ko'magiga tayanib kelmoqdamiz.

Xulosa. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi o'z tashabbuslari bilan nafaqat mamlakatni, balki butun mintaqani rivojlantirish borasida izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Bizning bosh maqsadimiz – umumiyl sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror,

iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat". Markaziy Osiyo mamlakatlarining barcha sohalarda teng huquqli sheriklik va hamjihatlik asosida hamkorligi mintaqqa rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz rahbarining tashabbuslari, faol va pragmatik diplomatiya hamda tashqi siyosat tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit vujudga keldi va transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlarini kesib o'tish, transchegaraviy savdoni rivojlantirish kabi eng dolzarb muammolarni hal qilish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Bularning barchasini O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida keyingi uch yil mobaynida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan yaqin va o'zaro manfaatli qo'shnichilik aloqalarini rivojlanish borasidagi izchil tashqi siyosatning hosilasi hamda mustaqil o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i, deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokralashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir // O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. 3-jild. – B. 59.
2. O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar. – Toshkent: Akademiya, 2005. – B. 9
3. Karimov I. A. BMT Bosh Assambleyasida so'zlangan nutq // Vatan ravnaqi uchun har birimiz masulmiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. 9-jild. – B. 106.
4. Karimov I. A. Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» xalqaro konferensiyasida so'zlangan nutq, // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. . 6-jild. – B. 356.
5. Xalq so'zi 2007 yil 3 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. – 2007. – № 4 (1372). – B. 9.